

TABIIY MATERIALLAR BOLLARNI IJODKORLIKKA UNDAYDI

Mamadaliyev Furqatjon

*Namangan viloyati pedagogi mahorat markazi maktabgacha,
Boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasi o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

O'z faoliyatini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan o'qituvchilar mana shu hammaga ma'lum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashlari kerak. Texnologiya darslari amaliy mehnat faoliyati bilan birlashtirish va o'quvchilarning ilmiy bilimlarini chuqur o'zlashtirishini ta'minlashda ta'limning turli usullaridan foydalaniladi. Nazariy materialni tushuntirish chog'ida o'qituvchi o'quvchilarning bilimlari va tajribasiga suyanadi. O'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha mehnatga oid harakatlar nazariy bilimlarni bilishga tayanadi. Bugun biz tabiiy materiallar bilan ishlash haqida fikr yuritamiz.

Kalit so'zlar: estetika, kompozitsiya, samara, tahlil, ko'nikma, tasavvur, idrok, kombinatsiya.

Respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy– iqtisodiy, ma'naviy – ma'rifiy, madaniy o'zgarishlar ishlab chiqarishdagi mehnat jarayoniga ham ta'sir etmoqda. Bu jarayonda mehnat tarbiyasining maqsadi, vazifalari mazmuni, yoshlarni kelajakda o'z kasbining mohir ustasi bo'lib voyaga yetishishda texnologiya ta'limi va tarbiyasi tizimining yangilanishini taqozo etadi. Bu esa ishlab chiqarish munosabatlarida uzluksiz ta'lim va tarbiya muassalari jumladan umumiy o'rta ta'lim maktablarida xususan boshlang'ich sinflarda olib boriladigan mehnat ta'limi va tarbiyasi jarayonida turli ishlardan foydalanib puxta bilim egallashni taqozo etadi.

Texnologiya darslarida turli materiallar bilan ishlash darslarini to'g'ri tashkil etish va uning usullariga qo'yadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. Chunki tabiiy materiallar o'quvchilarda jodkorlikni tarbiyalaydi. O'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchilarning usullari bo'lib, bular yordamida o'qituvchi o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga erishiladi. O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, hatti-harakati darsda o'quvchilarning diqqat-e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning chambarchasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda ish materiallarining mazmuni, hajmi va usullari o'quvchilarning amaliy ishga tayyorgarlik bosqichiga mos kelishi zarur. O'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishda faqat soddalashtirish yo'li bilan borish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bunday yo'l bilan borish o'quvchilarning aqliy

rivojlanishi ta'minlay olmaydi. Har bir mavzuni o'rganishda soddadan murakkabga qarab borish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda turli materiallari bilan ishlashga o'rgatishda quyidagi ish turlariga bo'linadi.

Turli materiallar bilan ishlashga o'rgatish o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashga xizmat qilib, ularni g'oyaviy-siyosiy, aqliy, ahloqiy va mehnat tarbiyasini amalga oshirishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Boshlang'ich sinflarda turli materiallari bilan ishlash texnologiya darslarida mehnat ta'limi vazifalari qatoriga quyidagi vazifalarni kiritish mumkin:

- o'quvchilarni tabiatdagi, tevarak-atrofdagi narsa va voqealarga estetik munosabatni tarkib toptirish, ulardagi go'zallikni his qila bilishga, tushunishga hamda shu his va tushunchalarni hayotga tadbiiq etishga o'rgatish;
- tabiatga nisbatan estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish;
- muntazam va maqsadga muvofiq ravishda ko'rib-idrok qilishni, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni, fazoviy fikrlashni, fantaziyani, ko'rish orqali tasavvur qilish va kombinatsiyalash, ijodiy vazifalarni aniq obrazlarga hal qilishni rivojlantirish;
- turli materiallar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;
- ularda tabiatga nisbatan emotsional idrok, ijodiy qobiliyat, did, tasavvurni o'stirishga qaratish;
- turli materiallar asosida turli o'yinchoqlar va ko'rgazmalar yasashda ijodiy texnik malakalarini rivojlantirish.

Hozirgi kunda texnologiya darslarida o'quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashning ilk bosqichlarini o'rganadilar. Darslarda o'quvchilarni turli materiallar bilan ishlashga o'rgatish darslarini tashkil etishning asosiy vazifalaridan biri materiallarga ishlov berish ko'nikmalarini hosil qilish va shunga muvofiq bilimlarni berishdir. Bu ish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o'quvchilar hali eng oddiy buyumlarni tayyorlash ishlarni eslab qolishga qodir bo'lmaydilar.

1. O'quvchilar oldiga turli materiallar bilan ishlashga o'rgatish maqsadi va mavzusini qo'yish:

- a) darslarda turli materiallar bilan ishlashga o'rgatishga mo'ljallangan buyum yoki ishning o'quvchilar hayotining yoki bu tomoni ehtiyojlarini qoniqtirishdagi ahamiyati;
- b) belgilangan ishni mustaqil bajarish uchun qanday yangi bilim va ko'nikmalarni egallash lozimligini ko'rsatib o'tish kerak.

2. Turli materiallar bilan ishlashga o'rgatishda ish o'rni, asbob-uskuna, material, namuna, doskadagi chizmalarining tayyorligini tekshirish, ishni yaxshi va uyushgan holda tashkil etishga yordam beruvchi qonun-qoidalarini eslatib o'tish.

3. Turli materiallar bilan ishlashga o'rgatish darslarida bajariladigan mehnat vazifalarini oldindan rejalashtirib olish lozim:

a) namuna, qism va detallar miqdorini tahlil qilish, kerakli materillarni, berilgan oʻlchovlarni tayyorlash;

b) buyum tasviri va uning detallarini namunadan tanish, tushunish, barcha oʻlchovlarni va ishchi chiziqlarini topish va oʻqish, yaʼni ishni buyumni tayyorlash uchun qanday harakatlarni amalga oshirish, qanday asboblarni ishlatish, mehnat harakatlarini ketma-ket bajarish tartibini aniqlash.

4. Materialni namuna, berilgan oʻlchovlar boʻyicha belgilab chiqish. Oʻquvchilarni belgilash tartibini bilishlari va uni doskada belgilash bosqichlarini bajarayotgan yoki buyumni koʻrsatib tushuntirayotgan oʻqituvchi bilan bir vaqtda bajarilishi lozim.

5. Ishni tekshirish, xato va kamchiliklarni tuzatish, ishni baholash.

6. Darsga yakun yasash, oʻquvchilar ishlarini baholash, yangi vazifalar qoʻyish.

Boshlangʻich sinf texnologiya darslarida turli materiallardan buyumlar yasashda koʻproq ishlatiladigan oʻsimlik materiallarining ayrim turlarinigina koʻrib chiqamiz.

Oʻrmon yongʻoqlari. Ulardan oʻyinchoq odamchalar, hayvonlar (boʻri va qoʻzichoq, quyon) boshchalarini yasashda foydalaniladi. Oʻrmon yongʻoqlarini pishganda, avgust oyida terish kerak. Yongʻoqlarni taxtachalarda quritib qutichalarda saqlanadi. Oʻrmon yongʻogʻining poʻchogʻi qattiq. Uni qiyinchilik bilan pichoq yordamida kesiladi yoki buguz bilan teshiladi. Qurib qolgan yongʻoq bilan ishlash qiyin, shuning uchun ularda foylanmaslik maʼqulroq.

Kedr yongʻoqlari. Qoʻshimcha material sifatida hayvonchalar oyogʻini, odamchalar mushchalarini yasashda ishlatish mumkin; ular bigiz bilan oson teshiladi, yaxshi yelimlanadi.

Er yonogʻoq. Oʻyinchoq tayyorlashda juda qulay material; u oson teshiladi, kesiladi, chunki uning poʻchogʻi yengil va yupqa. Yer yongʻoqdan hayvonlarning (hoʻtik, kuchuk, mushuk shakllarini, koʻrinishlarini) yasash mumkin. Yongʻoqlarni quruq joyda xonada saqlash mumkin, chunki uning poʻchogʻi qurigandan soʻng qotib qolmaydi.

Kashtan. Kashtan mevalari oddiy oʻyinchoqlarni yasashda yaxshi material hisoblanadi. Ular chiroyli yaltiroq sirtga va yorqin jigarrangga oson teshiladi. Kashtanning butun mevalaridan qoʻngʻirchoq boshi va tanasini yasashda, tovu, xoʻroz kabi narsalarni yasashda qoʻl keladi.

Kashtanni salqin joyda saqlash maqsadga muvofiqdir.

Oqqayin poʻstlogʻi – oʻyinchoqlar yasash uchun juda chiroyli va mustahkam materiallardan biridir. Ish bajarish uchun quruq yerda oʻsgan oqqayin poʻstlogʻidan foydalanish kerak, chunki u zich, mustahkam va qayishqoq boʻladi. Oqqayin poʻstlogʻini bahorda va erta yozda yigʻish kerak, chunki oson olinadi va eng zoʻr rangda boʻladi. Lekin poʻstloqni shamol yiqitgan daraxtdan yoki kesilgan shoxlardan olish zarur.

Shoxlar. Turli shoxlar (shoxchalar) buyumlarning ayrim qismlarini: qo‘l, oyoq, bo‘yin va x.klarni yasashda qullaniladi. Buyumlar uchun qizil, qayrog‘och, qoraqayin, nastarin shoxlaridan foydalanish mumkin. Ularning shoxlari qayishqoq va qurishda oson sinmaydi.

Shoxlarni terish oson ish emas, u vaqtni, sabrni, orastalikni talab qiladi. Bunda bolalarga daraxtlarni asrash va o‘yinchoqlar uchun qurigan (judayam qurib ketgan bo‘lmasligi kerak) shoxlarni terish kerak ekanligini eslatib turish zarur.

Tomirlar. Buyumlar yasashda tomirlardan ham foydalansa bo‘ladi. Ayrim paytlarda ular o‘zlarining ajoyib ko‘rinishlari bilan turli hayvonlarni, qushlarni yoki tanalarining bo‘laklarini eslatadi. Bunda ayniqsa obrazli ko‘rish, kuzatuvchanlik muhimdir va bunga bolalarni o‘rgatish kerak. Bolalar fantaziyasi qiyshiq tomirlarida sakkiz oyoqning, o‘rgamchakni, toychoq boshini ko‘rishga yordam beradi.

Barglar. Barglar o‘yinchoqlarni yasashda qiziqarli va kerakli qo‘shimcha material hisoblanadi. Ular turli shakl va ranglarda bo‘lishi mumkin. Eman daraxtlarning yirik barglarini bolalar kemalarga yelkan sifatida ishlatishadi. Barglardan kapalak qanoatlari, baliq so‘zgichlarini (bu o‘yinchoqlar g‘udda va bargdan yasaladi) yasashda qo‘llash mumkin. Barglarni kuzda, ular chiroyli bo‘lganida terish yaxshi.

Urug‘lar. O‘yinchoq uchun turli materiallarga qimmatli qo‘shimcha bo‘lib daraxtlar, gullar, sabzavotlar urug‘lari xizmat qiladi. Masalan: zarang, shumtol urug‘lari. Bolalarga ular qanotchalar sifatida tanishdir. Ulardan ninachi qanotlarini, quyon quloqlarini, baliq suzgichlari, tarvuz, qovun, kungaboqar urug‘laridan ko‘zlar yasash mumkin. Urug‘larni kuzda yig‘ish yaxshiroq.

Mehnat darslarida turli materiallar bilan ishlash darslarini samarali ravishda tashkil qilsak:

- O‘quvchilar o‘zining sodda ijodiy fikrini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarni erkin fikrlashga, ijodkorlikka, tashabuskorlikka o‘rgatadi.
- O‘quvchilar mehnat darslarida o‘zlashtirgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.
- turli turli materiallar hamda ularni to‘plash va saqlash qoidalari bilan tanishishadilar.
- atrof-muhitni muhofaza qilishni, buyum uchun atrof-muhitdan ob‘ekt tanlashni o‘rgatadi.
- turli turli materiallarga ishlov berish va mustahkamlash qoidalarini, predmetni tahlil kila bilishni o‘rgatadi.
- materialga ishlov berish uchun asboblarni tanlashni o‘rgatadi
- mustaqillikni, tasavvurni namoyon qilishni o‘rgatadi.

- ijodiy kobiliyatlarni o‘stiradi, dunyoqarashini shakllantiradi, hamda badiiy estetik didini oshirishdi.

- o‘z vaqtida, rejali, tartibli o‘tkazilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning qiziqish va havaslarini oshiradi, ma’naviy, mafkuraviy qarashlarini boyitadi.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarga boshlang‘ich sinfdanoq mehnatsvarlikka, ijodkorlikka, o‘rgatilsa, kelajakda barkamol, jamiyatimizning rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shadigan avlodlar kamol topadi deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.A. Mavlonova va boshqalar “Pedagogika” T., “O‘qituvchi” 2008 yil
2. R.A.Mavlonova, Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Mehnat va uni o‘qitish metodikasi” TDPU. 2007 yil
3. Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Mehnat ta’limidan amaliy ishlar” TDPU 2007 yil
4. R. Hasanov, H. Egamov “Tasviriy sa’nat va badiiy mehnat” T. “O‘qituvchi” 1997 yil.
5. Nurmatova M.. “Mehnat tarbiyasi” Toshkent. TDPU. 2005 y